

ILMIY IJODIYOTGA KIRISH

Normo‘minov Bahodir Umarovich

*SamDChTI pedagoigika, psixologiya va jismoniy madaniyat kafedrasi assistent
o‘qituvchisi*

Sultonova Gulrux Islomovna

SamDChTI Ingliz tili fakulteti 2325-guruh talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolani maqsadi-ta’lim oluvchilarni ilmiy ijodiyot metodologiyasi va metodikasi asoslari bilan tanishtirishdir. Maqolada magistrlar va bakalavriat uchun ilmiy ijodiyot qilish jarayonlari tahlil qilingan. Yosh izlanuvchi tadqiqotchilar ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanishni istovchilar, yosh o‘qituvchi – mutaxassis pedagoglar uchun ilmiy tadqiqot ishlarini boshlash, davom ettirish va yakunlash haqida umumiy va xususiy metodik maslahatlar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *ilim, bilim, tajriba, fan, ilmiy ijodiyot, ilmiy daraja, doktorantura, dosent, professor.*

Kishilik jamiyati paydo bo‘lgandan buyon tevarak-atrofdagi yuz berayotgan voqealar, hodisalar, jarayonlar sabablari narsalar buyumlar turli xil qurilmalar va ularning yaratilishi bilan qiziqib kelganlar. Yangi samarali ko‘rinishlarni yaratganlar. Bunday ilmiy ijodiy faoliyat deyilgan va turli davrlarda turli ko‘rinishda amalga oshirilgan.

“Ijod-insonning yangi moddiy va ma’naviy ne’matlar yaratish faoliyati” (3-81 b)

“Ijod (arabcha)-kishining yaratuvchilik mahorati: badiiy ilmiy asar yoki moddiy boylik yaratish, vujudga keltirish: yaratuvchilik, ijodiyot” (1-523b)

Demak, ijod ijodiy faoliyat insongagina xos bo‘lib u tizimli ravishda izlanadi, yangiliklarni yaratishga, borlarini rivojlantirishga, takomillashtirishni umuman amalda o‘zgartirishni ko‘zda tutadigan jarayondir.

Manbalarda ijodni shartli ravishda 2 ga ajratiladi: Ilmiy va badiiy amaliy: Olimlar, allomalar faoliyati ilmiy ijodga, san’atkorlar musiqa, amaliy va tasviriy san’at, ixtirochilik, yozuvchilar va boshqalar ijodi-badiiy ijodga bo‘linishi mumkin. “Ilmiy ijodda tabiat va jamiyat hayotining ob’ektiv qonuniyatlari aks etsa, badiiy ijodda ma’naviy hayot mualliflariga san’atkorning sub’ektiv o‘ziga xos qarashlari his-tuyg‘ulari aks etadi”. [2-81]

Ilim–insonning o‘qish o‘rganish va shaxsiy hayotidagi tajribalar, kuzatishlar natijasida shakillangan bilim va malakalar majmuasi. Inson kamolotidagi ilm egallash qobiliyati, uning ulkan, alohida xususiyatini fazilatlaridan hisoblanadi.

Bilim-kishini tabiat va jamiyat hodisalarini o‘rganish asosida shakillangan axborotlar va ma’lumotlar majmuidir.

Tajriba-Voqelikni amaliy jihatdan hissiy-empirik bilish sinov usuli jarayoni keng manoda-o‘quv, bilim, ko‘nikma, malaka va mahoratining birligidan iborat.

Bilim-tevarak atrof-dagi narsa, buyum, predmetlar, borliq, hodisa jarayon va voqeliklar to'g'risida avlodlar tomonidan yaratilgan axborot, ma'lumotlar va xabarlar to'plamining biror narsaga qog'ozga, teriga va boshqa manbalarga yozdirib qoldirilishidir.

Bilimli kishi- anashu manbalar bilan ko'proq tanish bo'lib, ulardagi mahsus axborotlar va ma'lumotlarni nisbatan ko'proq o'zlashtirgan hayotga va amaliyotga qo'llayotgan insonlardir.

Fan-muayyan yo'nalish bo'yicha tevarak atrof-dunyo olam va odam yaratishi, borligi haqidagi shakillangan abektiv va sub'ektiv bilimlar tizimi mahsulidir.

Fan-ijtimoiy ong shakillaridan biri bo'lib, tarixiy taraqqiyot jarayonida fan-texnika rivojlanishida jamiyatning ishlab chiqarish kuchiga aylanib boradi.

Kadrlar tayyorlash milliy modelida fan, ishlab chiqarish, shaxs, davlat, ta'lim - tarbiya tizimi etakchi omillar sifatida qaraladi.

Fan-tabiat, jamiyat, tafakkur, ruhiyat va ulardagi sifat va miqdor o'zgarishlarini beruvchi yangi bilimlar tizimini shakillantirish hamda ulardan amaliy faoliyatda, hayotda foydalanish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Fanning asosiy maqsadi insoniyatni dunyoga kelishidan, uning atrof-muhit haqidagi olam sir-sarorlarini ilmiy asoslash, tabiat va jamiyat rivojlanishi qonuniyatlarini yaratish hamda, ulardan kishilik jamiyati ravnaqi uchun foydalanishga bo'lgan jarayonni ta'minlashdir.

Uzluksiz ta'lim tizimida ilim fanni o'rganish, bilish jarayonida muvaffaqiyatli ishtirok etish shakillanayotgan shaxs uchun muhim omillardan hisoblanadi. Ammo, ta'lim-tarbiya tizimining barcha bosqichlarida ham, muassasalarida ham ilmni, fanni o'rganishga faol, tizimli, maqsadli ravishda tayyorlanavermaydilar. Shuning uchun, umumiy o'rta maxsus, bakalavriatura va magistratura bosqichlaridan ilim-fanning nazariy va amaliy asoslarini tizimli, maqsadli ravishda o'rgatish, o'rganish lozim bo'ladi.

Ushbu jarayonda ilmiy ijodiyot metodologiyasi va metodikasi asoslari bilan tanishtirishdir. Aslida ta'lim oluvchilar uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimining barcha bosqichlarida, barcha fanlarni o'rganish o'qish jarayonida, barcha tadbirlarda ishtirok etishda, bilish jarayonida ishtirok etishga, ya'ni olamni va odamning xususiyatlarini bilishga o'rganishga tayyorlanib borishlari lozim. Ammo, hozirgi vaqtda uzluksiz ta'limning har bir bosqichini tugallagan bitiruvchilar mustaqil hayotga, kasb-hunarlariga, ilmiy ijodiyotga, ilmiy izlanishlarga to'liq tayyorlanmasdan qolmoqdalar. Shuning uchun, ayniqsa, ijodkor yoshlar uchun "Ilmiy ijodiyot" metodologiyasi va metodikasini ishlab chiqishga urinib ko'rildi.

Ilmiy daraja-muayyan fan sohasidagi mutaxassislarning ilmiy malakasi darajasi. O'zbekistonda fan nomzodi (2011-yildan boshlab yoqlanmaydi), falsafa doktori(PhD) va fan doktori (Doktor science) ilmiy darajalari mavjud." Ilmiy darajalari yuqori malakali ilmiy xodimlarga fanni boyituvchi tadqiqot ishlari, ilmiy muammolarni amaliy yoki nazariy jixatdan hal qila oladigan mustaqil ilmiy -tadqiqoti yoki yangi muammolarni ilmiy asoslanganligiga bag'ishlangan disertasiyalarning maxsus ixtisoslashgan ilmiy kengashlarda ochiq himoya natijasi asosida ushbu kengash va O'zbekiston Oliy Atestasiya

Kamisiyasi ekspert kengashi tavsiyasiga binoan oliy ma'lumotli bo'lgan dissertasiyani muvaffaqiyatli yoqlagan shaxslarga OAK tomonidan beriladi"[2. 49b]

Doktorantura-katta ilmiy xodimlar institute oliy malakali , ilmiy darajali, ilmiy va ilmiy pedagogik kadrlar (fan doktorlari) tayorlash shakli. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi qarori bilan Oliy O'quv Yurtlarida va ilmiy tadqiqot institutlarida va markazlarda ochiladi (o'qish mudati 3 yil).

Ilmiy unvon-OO'Yurtlari o'qituvchilari va ITilar ilmiy xodimlariga ko'rsatgan maqsadli xizmatlariga nisbatan beriladigan daraja.

Dosent-lot.Gosene-ta'lim beruvchi bir qancha mamlakatlarda OO'Yularning ilmiy unvoni va lavozimi.

Professor-lot-pofeessor-muallim, o'qituvchi, Oliy O'quv Yurti o'qituvchisining yoki ITI ilmiy xodimlarining ilmiy unvoni, lavozimi, shogitlar tayorlashi va ish tajjariga egallab turgan lavozimiga ko'ra OAK yoki Oliy O'quv Yurti ilmiy kengashi tomonidan beriladi.[2.50]

Akademiya-yunoncha so'z bo'lib, u akademos - afsonaviy qahramon "akadem" nomidan olingan. Akademiya ko'pincha Oliy O'quv Yurtlar, ilmiy muassasalar va harbiy maxsus o'quv yurtlari va markazlarning umumiy nomi.

Akademik-yuksak ilmiy unvon. Akademiklar saylanadi.

Fan doktori-doktor lotincha -doctor- uztoz degani, ilmiy darajasini olish uchun himoya qilinadigan fan va texnikaning muayyan sohasidagi kata ilmiy-nazariy muammolarni ham qilishi,yangi ilmiy amaliy nazariy xulosalarni, taklif va tavsiyalarni o'z ichiga olishi, fan va amaliyotning rivojiga ulkan hissa bo'lib qo'shilishi lozim,uning muallifi chuqur ilmiy ,nazariy, amaliy BMK larga egaligini ko'rsatishi,isbotlashi lozim.

Dissertasiya -lotincha: dissertation -tadqiqot, mulohaza-ilmiy daraja olish uchun taqdim etiladigan va ilmiy jamoatchilik oldida yakka tartibda himoya qilinadigan ilmiy asar [2.66b]

Ma'lumki, ananaviy pedagogikada xalq pedagogikasida mehnat, kasbiy, hunar, jismoniy, xulqiy (axloqiy), aqliy, ekologik, (atrof -muhit, tabiat va inson muhofazasi) iqtisodiy, ijodkorlik, ma'naviy, g'oyaviy, siyosiy, huquqiy, politexnikaviy, ilmiy qadryatlar, diniy bag'rikenglik tolerantlik, kompyuter odobi, tadbirkorlik (ishbilarmonlik) kabi noananaviy tarbiyalar berib kelinmoqda. Pedagogikadan quyidagi yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilishi mumkin.

Pedagogika fanidan ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun yuqorida ko'rsatilgan tarbiya turlaridan biri yoki bir nechasini yoki ularning qisimlarini yosh avlodga singdirish, ularda belgilangan xislatlar va fazilatlar. Shakillantirishning texnologiyalarini, metodikalarini nazariy jihatdan ishlab chiqish va amalga joriy qilish asosiy negizini tashkil etadi.

Psixologiya-kishining ishki dunyosi ruhiy fazilatlarini, ularning bir-birlari bilan muloqotlarda, munosabatlarda bo'lishlarida namoyon bo'lishi darajalarini o'rganadigan fandır.

Hozirgi davrda kishilarning ruhiy rivojlanishlari taraqqiyoti ayniqsa ko'zga tez va soz holda ko'rinadigan davrdir. Chunki, ko'pgina davlatlarning mustaqillikka erishishlari,

ulardagi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy tuzumning o'zgarishi ko'pgina davlatlarda moliyaviy, siyosiy inqirozlarning yuzaga kelishi, butun dunyo kishilarining ongiga internet orqali mafkuraviy, g'oyaviy huquqlar, davlatlar o'rtasida iqtisodiy, mehnat, kasb hunar emigrasiyalari uchun chegaralarning olib tashlanishi, kishilarning boshqa mamlakatlarga borib, nafaqat, iqtisodiy, balkim ma'naviy, mafkuraviy, madaniy ishlab chiqarish axloqiy va boshqa xil munosabatlarda, mulqotlarda bo'lishlari, albatta, psixologiya fani va uning tarmoqlarini taraqqiy ettirishga sabab bo'ldi. Psixologik munosabatlar ayniqsa ishlab chiqarishda xususiy mulkchilikning rivojlanishida, mafkuraviy sohalarda globallashuv tufayli mafkuraviy immunitetning etishmay qolishida, bozor iqtisodiyoti sharoitida, mablag'larning tezkor ko'payishi-yu, ong va tafakkurning unga mos holda bo'lmasligi, kasb-hunarlar emigrasiyasida, kishilarning yollanma mehnat qilishga borishlari-yu, ammo, kasb-hunarlar ko'nikma, malakalarning etishmasligi va juda ko'plab shunga o'xshash xolatlar sodir bo'lmoqda. Kishining psixologik xususiyatlari: xayol, ong, temperament (mijozi) xarakter, iroda, iqtidori (talanti) xotira, sezgilari (ko'rish, hid va ta'm bilish) tuyg'usi, tafakkur va boshqalar hozirgi davr sharoitida keskin ta'sirlarga duch kelmoqda. Shuning uchun, ishlab chiqarishning ham xalq xo'jaligining va taraqqiyotining turli sohaslarining rivojlanishida kishilar o'rtasidagi munosabatlarga va ushbu munosabatlarning to'g'ri o'rnatilishiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Demak, psixologik ilmiy tadqiqot ishlarining dolzarbligi, muhimligi hozirgi vaqtda ayniqsa tezkor ravishda olib borilmoqda oila va sport psixologiyasi, pedagogik psixologiya, harbiy, ishlab chiqarish, sanoat, yosh, tibbiy, savdo, bozor, ijtimoiy psixologiya kabi sohalar keng rivojlanmoqda.

Didaktika—"grekcha", didaskallar orgatuvchi, o'qituvchi, degan ma'noni anglatib, ta'lim nazariyasi va amaliyoti qoidalari to'plami degan degan ma'nolarni anglatadi.

Metodika – ta'lim-tarbiya ishida va boshqa ishlarni amalga oshirishda qo'llaniladigan usullar, uslublar, shakillar vositalar majmui bo'lib, mazmuni o'zlashtirishda namoyon bo'ladi. Ayniqsa, hozirgi davrda, ya'ni turli xil ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar davrida ta'lim-tarbiya tizimining hali, ularning turlarini ham maqsad va vazifalari, tuzilishi keskin o'zgarimoqda. Ayniqsa, ta'lim tizimida yangi texnologiyalarni ko'plab samarali shakillarini kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joyizki. Uzlaksiz ta'lim tizimida o'qitish, o'rgatish, o'qitish metodikalarini, texnologiyalarini, metodlarini yangilanish davrida, albatda, o'qituvchi, metodikasi pedagoglarning an'anaviy va noan'anaviy o'qitish texnologiyalarini, metodikalarini yaxshi bilishlari, so'ngra ularni ta'lim-tarbiya amaliyotiga, pedagogik jarayonga sifatli qilib qo'llay olishlari zarur bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abduraxmnov A. Saodatga eltuvchi bilim. T Movorounnaxr 2002 y
2. Turakulov F.A. ilmiy ijodiy metodologiyasi. Toshkent fan 2016-y
3. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi 5 jild PUMIdagi nashr. 2003 y